



SOHA TILI VA NUTQI MASALASI

Gulinur Tursunpulatova

Gumanitar fanlar fakulteti

Uzbek tili va adabiyoti yunalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada ta'lif tili va terminologiyasi, til ta'limi, o'zbek adabiy tili me'yordi, ularni tartibga solish masalasi bo'yicha fikr bildirilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi muammo va masalalar izohlangan hamda o'rinni takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: til, ta'lif, o'qituvchi nutqi, fundamental fanlar, terminologik me'yor, ta'lif tili, normativ huquqiy hujjat, pedagogik soha.

Respublikamizda fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalariga, shuningdek, barcha sohalarda ona tilimizning qo'llanilish doirasini e'tibor qaratish, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama o'rganish, lug'atlar nashr etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2020 yil 29 yanvardagi 40-son qarorlari va boshqa qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida tashkil qilingan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekistonda ta'limga oid islohotlarining o'tkazilishi sababli ta'lif tiliga, ya'ni til ta'limi o'rganishga imkoniyat, zarurat yuzaga keldi va bu soha ham ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida rivojlanmoqda. Bugungi kunda ushbu sohani har tomonlama tadqiq qilish, ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, talim sohasida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlar va ularning vazifalari, pedagogik mahorat, o'qituvchi nutqining tushunarligi, mantiqiyligi va maqsadga muvofiqligi, lug'at boyligi, so'z va terminlarni qo'llashdagi mahorati muhim ahamiyatga egadir. Yuridik terminlar soha vakillari nutqida faol qo'llanib, jarayonning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Bu esa tilshunoslikda yuridik terminlarni alohida o'rganish, uning ahamiyatini ko'rsatib berish lozimligini keltirib chiqaradi hamda bugungi kunda yechimini kutayotgan masalalardan biri ekanligini belgilaydi. Demak, o'zbek tili doirasida huquq tili va nutqining funksional-semantik va semantik-uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekistonda shu paytgacha huquq tili masalasi, asosan, umumiyy notiqlik tarkibida ko'rilib bo'lib, mazkur soha tili va nutqi tilshunoslar tomonidan emas, balki, asosan, huquqshunoslar tomonidan o'rganilgan.¹²⁰ Bu ishlarda asosiy e'tibor

¹²⁰ Сайдов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва хукуқшунос нутқи. –Тошкент: Адолат, 1994, 32 б ва б.



huquqshunoslarning kasbiy mahoratiga, nutqining psixologik jihatlariga qaratilgan. Bunda dastlabki ish sifatida S.Inomxo'jaevning "Notiqlik san'ati asoslari" kitobini ko'rsatish mumkin.¹²¹ B.O'rabloev, A.Solievlarning "Notiqlik mahorati" kitobida ham qadimgi yunon va rim notiqlari orqali huquq tili haqida ma'lumotlar berilgan.¹²²

A.Saidov, G.Sarkisyanslarning "Yuridik til va huquqshunos nutqi" kitobi ma'lumotlarga boy bo'lib, asosiy e'tibor yuristlarning tildan foydalanish mahoratiga qaratilgan.¹²³

K.Nazarov, S.Usmonov, Q.Tohirovlarning "Yuristning nutqi madaniyati" (O'zR yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik) kitobi bo'lg'usi yuristlarning ijtimoiy-huquqiy faoliyatida shaxslararo muloqot ko'nikmalarini, turli yuridik vaziyatlarda professional nutqdan foydalanish mahoratini, shuningdek, huquqqa oid bilimlarni amaliyotda qo'llashda til me'yolariga muvofiq ongli va oqilona foydalanish ko'nikmasini shakllantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan.¹²⁴ M.Voinovaning "Kultura rechi yurista" risolasining 6-bobi sud munozarasi nutq madaniyatiga, 7-bobi sud notiqligining asoslari, ritorika va ommaviy nutqning ko'rinishlarini o'rganishga qaratilgan.¹²⁵ Risolada sud notiqligiga oid izchil ma'lumotlar, materiallar berilgan bo'lib, ular ham asosan yuristlarga mo'ljallangan.

M.Mirhamidov, S.Hasanovlarning "Yuridik til va huquqshunos nutqi" o'quv qo'llanmasida huquq va til, yuridik til, qonun tili va xalqaro huquq tilining o'ziga xos jihatlari hamda huquqshunos nutqi muammolari ilmiy-nazariy jihatdan izchillik bilan yoritib berilgan.¹²⁶ Xususan, mazkur kitobga ilova tarzida keltirilgan M.Abdusalomov va Sh.Ro'zinazarovlarning "Ruscha-o'zbekcha sud-huquqiy atama va iboralar lug'ati" katta amaliy ahamiyatga ega. S.Karimov, X.Mamatov, I.Bo'reievlarning "Yuristning nutq madaniyati" o'quv qo'llanmasida izchil va o'ziga xos fikrlar keltirilgan.¹²⁷ M.Mirhamidov, N.Norpo'latov, S.Hasanovlarning "Yuristning nutq madaniyati" o'quv qo'llanmasida ham huquqiy terminlarning o'z va o'zlashgan qatlamga oidligi haqida yangicha fikr yuritilganligini kuzatish mumkin.¹²⁸

Ma'lum bo'ldiki, O'zbekistonda huquq tili haqida, asosan, yuridik sohaga oid darslik va o'quv qo'llanmalarda fikr bildirilgan bo'lib, ularda huquq tili lisoniy jihatdan o'rganilmagan. O'zbek tilshunoslida A.Aripovaning "Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida hamda "Notiqlik va uning lisoniy-uslubiy vositalari" nomli ilmiy-ommabop risolasida sud notiqligini shakllantiruvchi lisoniy, badiiy, nolisoniy vositalar

¹²¹ Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари.-Тошкент: Ўқитувчи, 1982, 157 б.

¹²² Ўринбоев Б., Солиев А. Нотиқлик маҳорати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1984, 102 б.

¹²³ Сайдов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва хукуқшунос нутқи. -Тошкент: Адолат, 1994, 32 б.

¹²⁴ Назаров К., Усмонов С., Тохиров Қ. Юристнинг нутқи маданияти.-Тошкент, 2003, 215 б.

¹²⁵ Воинова М. Культура речи юриста. -Ташкент, 2003, 228 с.

¹²⁶ Мирхамидов М., Ҳасанов С. Юридик тил ва хукуқшунос нутқи. -Тошкент: Университет, 2004, 238 б.

¹²⁷ Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристнинг нутқи маданияти .-Тошкент: Зарқалам, 2004, 158 б.

¹²⁸ Мирхамидов М. ва бошқалар.Юристнинг нутқи маданияти –Тошкент; Фан ва технология, 2005, 314 б.



izchil ko'rsatib berilgan¹²⁹. O'zbek tilshunosligida yuridik terminlar M.Qosimova va G.G'ulomovalarning nomzodlik, Sh.Ko'chimovning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida tadqiq qilingan. O.Tursunova huquqshunoslik terminlarini diaxron aspektda o'rgangan. P.Nishonov fransuz va o'zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqini amalga oshirgan. Qayd etilgan ilmiy ishlarda huquq tili leksikasida uchraydigan ko'plab yuridik terminlar haqida fikr bildirilgan, ular yuzasidan izchil tahlillar qilingan. Ammo shu ishlar bilan cheklanib, huquq tili leksikasi o'rganilgan degan xulosaga kelib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda yuridik til va yuridik nutq masalalarini takomillashtirish, bu sohani rivojlantirish, til va huquq, yuridik til va yuridik nutq nazariyasi bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini rag'batlantirish hamda shu sohada yetuk malakali kadrlar tayyorlash maqsadida "Yurislingvistika" deb nomlangan yangi ilmiy yo'nalishni yo'lga qo'yish borasida bir qator mutaxassislarining, jumladan, tilshunos olim Sh.Ko'chimovning sa'y-harakatlarini alohida e'tirof etish muhim.

Mazkur soha Rim davlatida Platon akademiyasida, Aristotel litseyida, Yevropadagi Nyurenburg va Strasburg gimnaziyalarida ham mukammal o'rgatilgan. Bugungi kunda ham yuridik til va huquqiy atamashunoslik va yuristning nutq madaniyati bilan bog'liq bilimlarni xorijiy mamlakatlarning yuridik oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, AQShning Chikago, Illinoys universitetlarida, Fransiya va Angliya hamda Rossianing deyarli barcha yuridik oliy ta'lim muassasalarida o'qitishga katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, Amsterdam universitetining bo'lajak huquqshunos talabalariga "Ijtimoiy muomala nutqi" "Sud notiqligi va haqiqat muammosi" kabi o'quv kurslari golland, ingliz, fransuz, nemis tillarida o'qitilmoqda.¹³⁰ Shunday ekan, xorijiy mamlakatlarning bu kabi tajribalarini O'zbekiston Respublikasida ham milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda qo'llash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Huquq sohasiga boshqa tillardan terminlar kirib kelishi yoki ichki imkoniyatlar asosida yangi huquqiy terminlarning yasalishi natijasida ham o'zbek tili leksik qatlami boyib bormoqda, shuningdek, yangi huquqiy tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, huquqiy sohada keyingi paytda *milliy-huquqiy tizim, milliy-huquqiy qonunchilik, sudning sayyor majlisi, odil sudlov, sud amaliyoti, sud-filologik ekspertiza, sud-lingvistik ekspertiza, mualliflik huquqi, qilmish, qonun ustunligi* kabi yuridik terminlar tilimizga kirib keldi.

"O'zbekiston Respublikasi qonunlarini tayyorlash to'g'risida"gi qonunning 20-moddasida: "Qonun loyihasidagi qoidalar aniq va ravshan bo'lishi lozim"- deyiladi. "O'zbekiston Respublikasi Normativ-huquqiy hujjatlari to'g'risida"gi qonunning 19-moddasida: "Normativ-huquqiy hujjatning matni lo'nda, oddiy va ravon tilda bayon etiladi. Normativ-huquqiy hujjatda foydalilaniladigan tushunchalar va terminlar

¹²⁹ Арипова А. Нотиклик ва унинг лисоний-услубий воситалари. –Тошкент, ЖИДУ, 2007, 144 б.

¹³⁰ Кўчимов Ш.Н. Ҳуқуқий атамаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003, 16-бет.



ularning amaldagi qonun hujjatlarida qabul qilingan mazmuniga muvofiq turlicha sharhlash imkoniyatini istisno etadigan tarzda bir xilda qo'llaniladi. Eskirgan hamda ko'p ma'noni anglatadigan so'zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalar qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi", - deb ta'kidlanadi.

Masalaning mohiyatidan kelib chiqqan holda xulosa qilsak, huquq tili va nutqini ilmiy-nazariy jihatdan o'rghanish orqali milliy yuridik til modelini yaratish, huquqshunos hamda tilshunos olimlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish orqali har ikkala sohaga oid fundamental ilmiy tadqiqot ishlari olib borish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov S., Mamatov X., Bo'riev I. Yuristning nutq madaniyati.-Toshkent: Zarqalam, 2004. - 158 b.
2. Ko'chimov Sh. O'zbekiston Respublikasi qonunlarining tili. Filol.fan.nomz...dis.avtoref. -Toshkent, 1995.
3. Ko'chimov Sh. Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari. Filol.fan.dok-ri...avtoref. -Toshkent, 2004.
4. Nazarov K., Usmonov S., Tohirov Q. Yuristning nutqi madaniyati.-Toshkent, 2003. - 215 b.
5. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Notiqlik san'ati va nutq madaniyati. -Toshkent, 2015.- 200 b.
6. Kadirova, Z. Z. (2024). ALISHER NAVOIY NASRIY ASARLARIDAGI PERIFRAZALARING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Philological research: language, literature, education*, 3(3), 38-42.
7. Pazilova, M. E. (2024). Development of learning competencies of students in the process of independent study. *Journal of social sciences and humanities researchfundamentals*, 4(04), 10-14.